



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
"GEOGRAFIYA VA AGRONOMIYA" FAKULTETI**

**"ZAMONAVIY GEOGRAFIYADA INNOVATSION G'OYALAR: RAQAMLI
IQTISODIYOT VA GIS TEXNOLOGIYALAR"**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2024-yil 25-26-oktabr

**"ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В СОВРЕМЕННОЙ ГЕОГРАФИИ:
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ГИС-ТЕХНОЛОГИИ"**

Международная научно-практическая конференция
25-26 октября 2024 года

**"INNOVATIVE IDEAS IN MODERN GEOGRAPHY:
DIGITAL ECONOMY AND GIS TECHNOLOGY"**

International scientific and practical conference
October 25-26, 2024

II-QISM



Qarshi shahri-2024

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kichik hududlarda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. Bunday imkoniyatlardan samarali foydalanish istiqbolda mintaqaviy turizmni rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu maqsadda hududda turizmni kompleks rivojlantirish davlat dasturi ishlab chiqilishi zarur. Hududlarning ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda turizm industriyasini rivojlantirish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni.
2. To'rayev Q.T., Qurbonov Sh.B. O'zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish va hududiy tashkil etilishini takomillashtirishning geografik asoslari. Monografiya. – T.: ZEBO PRINT, 2023. – 156 b.
3. The World Tourism Organization (UNWTO) //www.e-unwto.org/doi/epdf/10.18111/9789284413805
4. <https://uzbektourism.uz/> (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy veb-sayti).
5. www.stat.uz.

YO'L VA YO'L BO'YI LANDSHAFTLARINING TURISTIK SALOHİYATINI OSHIRISH MASALALARI XUSUSIDA (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Halimova G.S., Qalandarova D.D.

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston.

Annotatsiya: Maqolada yo'l va yo'l bo'yi landshaftlari va ularning rekreatsion imkoniyatlarini o'rganish, yo'l bo'yi landshaftlarining funksiyalari, shuningdek ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yo'l, yo'l bo'yi landshaftlari, turizm, rekreatsiya, estetik zavq, shovqin to'siqlari, estetik funktsiya

ПО ВОПРОСАМ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА АВТОДОРОЖНЫХ И ПРИДОРОЖНЫХ ЛАНДШАФТОВ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)

Халимова Г.С., Каландарова Д.Д.

Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан.

Аннотация: В статье представлены исследования дороги и придорожных ландшафтов и их рекреационные возможности, функции придорожных ландшафтов, а также рекомендации по их использованию.

Ключевые слова: дорога, придорожные ландшафты, туризм, рекреация, эстетическое удовольствие, шумовые барьеры, эстетическая функция

ON THE DEVELOPMENT OF TOURISM OF HIGHWAY AND ROADSIDE LANDSCAPES (ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA REGION)

Halimova G.S., Qalandarova D.D.

Bukhara State University, Buxara, Uzbekistan.

Abstract: The article presents studies of roads and roadside landscapes and their recreational opportunities, functions of roadside landscapes, as well as recommendations for their use.

Key words: road, roadside landscapes, tourism, recreation, aesthetic pleasure, noise barriers, aesthetic function

Har qanday hududning iqtisodiy salohiyati uning landshaft geografik xususiyatlari hamda turistik imkoniyatlarining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Shu sababdan ham geografik tadqiqotlarda landshaftlarning rekreatsion xususiyatlarini o'rganish va baholash muhim o'rin tutadi. Shunday ekan har bir landshaftning turistik imkoniyatlarini o'rganib, ularning rekreatsion xususiyatlarini oshirish bo'yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Bu borada Buxoro viloyatida ham turli mutaxassislar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Buxoro viloyati tabiiy geografik jihatdan to'lig'icha cho'l zonasiga joylashgan bo'lib, o'zlashtirilganlik darajasiga ko'ra cho'l-voha va cho'l-yavlov qismlariga bo'lingan. Aholi manzilgohlarining joylashuviga ham bevosita tabiiy geografik, iqlimiy xususiyatlarining ta'siri sezilib turadi. Ushbu manzilgohlar va ular iqtisodiyotini bir-biriga bog'lovchi vosita bu transportdir. O'z navbatida, transport shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni, sanoat rayonlari hamda hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun har bir hudud o'z iqtisodiyotini o'sishini ta'minlashi uchun, eng avval transport sohasi hamda transport infrastrukturasini rivojlantirishdan boshlamog'i lozim.

Odatda, katta hududlarga ega bo'lgan mintaqalarda, xususan ularning ichki qismlarida transport infratuzilmasini rivojlantirish muammolari dolzarb bo'ladi. Buxoro viloyati ham bundan mustasno emas.

Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida transport tizimining yana bir muhim qismi bo'lgan avtomobil transporti va avtomobil yo'llari ham o'rin tutadi. Mintaqa iqtisodiyotining avtomobil transportidan foydalanmaydigan birorta sohasi yo'q. Qisqa masofalarga yuk va yo'lovchilarni tashishda, zamonaviy transportning boshqa xillari mavjud bo'lmagan manzilgohlarda aholi va tashkilotlarga xizmat ko'rsatishda, ayniqsa transport uchun noqulay bo'lgan cho'l hududlarida avtomobil transportining ahamiyati beqiyosdir.

Buxoro hududidagi qator avtomobil yo'llari xalqaro va davlat ahamiyatiga ega. Hozirgi kunda viloyat avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 4100 km dan ortiq. (1-jadval). Shularning 95-100 foizi qattiq qoplamali yo'llardir. Viloyatimiz hayotida muhim o'rin tutgan avtomobil yo'llari jumlasiga eng avvalo Samarqand-Buxoro, Toshkent-Nukus, Urganch-Denov, Nukus-G'uzor yo'llari kiradi. Mazkur yo'llar nafaqat viloyat, balki O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Avtomobil yo'llari uzunligi bo'yicha viloyatlar orasida Buxoro viloyati peshqadam hisoblanadi.

1 - jadval

Buxoro viloyati avtomobil yo'llari uzunligi	
Avtomobil yo'llari	Yo'lning uzunligi, km
Xalqaro ahamiyatga molik	540
Davlat ahamiyatiga molik	1155
Mahalliy ahamiyatiga molik	2406
Jami:	4101

Jadval Avtomobil yo'llari qo'mitasidan olindi

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin mavjud avtomobil yo'llarini xalqaro andozalarga moslash, yo'llarni saqlash va ta'mirlash, yangi barpo etilayotgan sanoat rayonlariga xalqaro magistrallar bilan bog'laydigan yo'llar qurilishi masalalariga e'tibor kuchaydi. Shu bilan birga endilikda avtomobil transportida ham xususiylashtirish davom

etmoqda. Transport vositalari-avtobuslar, yuk va yengil mashinalarga ega bo'lgan jamoa hamda xususiy xo'jaliklar ko'paymoqda, ularning yo'lovchi va yuk tashishda salmog'i asta-sekinlik bilan o'sib bormoqda.

Buxoro (Kogon) – Samarqand – Qarshi “uchburchagida” Buxoro shahri ham o'ziga xos mavqega ega. Toshg'uzor – Boysun - Qumqo'rg'on yo'lining ishga tushirilishi Buxoro – Qarshi - Termiz “yo'lagining” shakllanishi va rivojlanishiga imkon beradi. Ayni vaqtda Buxoro – Gazli - Nukus avtomobil yo'li Katta O'zbek traktining bir qismi sifatida ahamiyati ortib bormoqda.

Buxoro viloyati aholisi sonining ortib borishi, yashah hududlarining kengayishi yo'llar uzunligining ortishiga olib kelmoqda. Yo'l qurilishi natijasida tabiiy landshaftlarda bir qancha o'zgarishlar kuzatilmoqda. Aksariyat hollarda yo'l atrofi laandshaftlari o'z tabiiy xususiyatini yo'qotib bormoqda. Yo'l bo'yi landshaftlari inson faoliyati natijasida shakllanar ekan, biz uni madaniy landshaft deb aytishga to'laqonli haqlimiz. Yo'llar kundalik ehtiyojimizning asosiy qismiga aylanib ulgurgan. Shunday ekan, yo'l bo'yi landshaftlarining hozirgi holatini o'rganish va kelajakda ekologik, rekreatsion imkoniyatlarini oshirish bo'yicha kerakli tavsiyalarni ishlab chiqish lozim.

Yo'l bo'yi landshaftlari yo'lining ikki tomonidagi o'simliklar, daraxtlar, butalar, suv havzalari, cho'l, o'tloqlar va boshqa tabiiy landshaftlarni o'z ichiga olgan hududlardir.

Yo'l bo'yi landshaftlari hayvonlar va o'simliklar uchun muhim yashash joyi bo'lib, biologik xilma-xillikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ular shuningdek, shovqin va ifloslanishni kamaytirib ihotaga vazifasini ham o'taydi. Bugunga kelib kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan Yo'l bo'yi landshaftlari - bu yo'l qurilishi jarayonida yo'ldan ikki yon tomonga cho'zilgan hududlardir. Yo'l bo'yi landshaftlari yo'lni atrofdagi muhitdan ajratibgina qolmay, ekologik, estetik va xavfsizlik funktsiyalarini bajaradi. Bular quyidagilar:

Ekologik funktsiyalari:

- Yashash joylarini saqlash: yo'l bo'yi landshaftlari hayvonlar va o'simliklar uchun yashash joylarini saqlaydi;
- Biologik xilma-xillikni ta'minlash: turli xil o'simliklar va hayvonlar turlarini yashab, ko'payishi uchun qulay muhit hisoblanadi;
- Suv havzalarini himoya qilish: yo'l bo'yi landshaftlari suv havzalariga yo'ldan oqib kelgan iflos suvlarni oqib o'tishini kamaytiradi;
- Tuproq eroziyasini kamaytirish: o'simliklar tuproqni eroziyadan himoya qiladi;
- Shovqin va ifloslanishni kamaytirish: o'simliklar shovqin va havoning ifloslanishni kamaytirishga yordam beradi;

Estetik funktsiyalari:

- Tabiiy go'zallikni ta'minlash: yo'l bo'yi landshaftlari yo'l bo'ylab tabiiy go'zallikni ta'minlaydi;
- Landshaft manzarasidagi bir xillikni buzish: o'simliklar va boshqa elementlar landshaft manzarasidagi bir xil ko'rinishning takrorlanishini oldini oladi va yo'l bo'yi qiziqarli manzaralar yaratadi;
- Sayohatchilarga dam olish joyini ta'minlash: yo'l bo'yi landshaftlari sayohatchilarga dam olish, tabiiy manzaradan bahramand bo'lish va tabiat bilan aloqa qilish uchun joylarni ta'minlaydi;

Xavfsizlik funktsiyalari:

- Landshaft manzarasini yaxshilash: o'simliklar yo'lning chegaralarini belgilashga yordam beradi va haydovchilar uchun ko'rinishni yaxshilaydi.

- Shovqin to'siqlari sifatida xizmat qilish: o'simliklar yo'l shovqinini kamaytirish uchun to'siqlar sifatida xizmat qiladi.
- Hayvonlar bilan bog'liq baxtsiz hodisalarni kamaytirish: o'simliklar hayvonlarni yo'lga chiqib, avtohalokatga uchrashini oldini olishga yordam beradi.

Yo'l bo'yi landshaftlarini tashkil qilish va ekotizimni himoya qilish, yo'l xavfsizligini ta'minlash va estetik zavq berish uchun muhimdir. Bu quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Rejalashtirish:

- Yo'l qurilishi rejalashtirilgan joylarni diqqat bilan tanlash, ekologik ta'sirni kamaytirish va landshaftni saqlab qolish strategiyasini ishlab chiqish;
- Ekologik baholash: yo'l qurilishi rejalashtirilgan hududni biologik xilma-xillik, tuproq sifati, suv manbalari va boshqa ekologik xususiyatlar nuqtai nazaridan baholash;
- Landshaftni tahlil qilish: hududni mavjud o'simliklar, daraxtlar, relyef, suv havzalari va boshqa xususiyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilish;
- Maqsadlarni belgilash: yo'l bo'yi landshaftlarini tashkil qilish uchun aniq maqsadlarni belgilash, masalan, biologik xilma-xillikni saqlash, shovqin va ifloslanishni kamaytirish, estetik zavq beruvchi muhitni yaratish va h.k.
- Dizaynni tanlash: yo'l atrofi landshaftini tashkil qilish uchun mos dizaynni tanlash, masalan, tabiiy landshaftni saqlab qolish, sun'iy landshaftni yaratish yoki har ikkisini birlashtirish.

2. O'simliklarni tanlash va joylashtirish:

- Mahalliy o'simliklar: hudud iqlimiga, tuproq turiga va boshqa sharoitlarga mos keladigan mahalliy o'simliklarni tanlash;
- Turli xil o'simliklarni tanlash: Turli xil o'simliklarni, masalan, daraxtlar, butalar, gullaydigan o'simliklar, o'tlarni tanlash biologik xilma-xillikni oshirish uchun;
- O'simliklarni joylashtirish: O'simliklarni 151trategic ravishda joylashtirish, masalan, shovqin to'suvchi yo'laklarni yaratish, tuproq eroziyasini kamaytirish va h.k.

3. Suv havzalarini tashkil qilish:

- Suv havzalarini himoya qilish: yo'l qurilishidan oldin mavjud suv havzalarini himoya qilish va kerak bo'lganda yangi suv havzalarini yaratish;
- Suv havzalarini tashkil qilish: suv havzalarining shakli, o'lchami va chuqurligini estetik zavq beruvchi ko'rinishga keltirish va suv havzalariga o'simliklarni ekish.

4. Yo'l xavfsizligini ta'minlash:

- Ko'rinishni yaxshilash: o'simliklarni shunday joylashtirish kerakki, haydovchilar yo'l bo'ylab go'zal manzarani ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin;
- Shovqin to'siqlarini o'rnatish: Yo'l shovqinini kamaytirish uchun shovqin to'siqlarini o'rnatish;
- Yoritilishni ta'minlash: yo'l bo'ylab yoritilishni ta'minlash yo'l xavfsizligini oshirish uchun;

5. Estetik zavq beruvchi muhitni saqlab qolish:

- Vizual estetika: yo'l atrofi landshaftini jozibali ko'rinishga ega bo'lishini ta'minlash uchun o'simliklarni tanlash va joylashtirish;
- Barqarorlik: yo'l atrofi landshaftlarini tashkil qilish uchun barqaror materiallarni va usullarni tanlash;
- Jamoatchilik ishtiroki: jamoatchilikni xabardor qilish, muammolarni muhokama qilish va himoya qilish choralarini ko'rishda ishtirok etishga rag'batlantirish kabi tadbirlarni amalga oshirishimiz kerak;

Yo'l atrofi landshaftlarini to'g'ri tashkil qilish ekologik muvozanatni saqlash, yo'l xavfsizligini ta'minlash va estetik zavq beruvchi muhitni yaratishga yordam beradi. Ushbu

bosqichlar yo'l qurilishi va yo'l bo'yi landshaftlarini tashkil etish jarayonida hisobga olinishi kerak.

Yo'l bo'yi landshaftlaridan rekreatsiya maqsadida foydalanish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Yo'l bo'yi landshaftlaridagi piyoda yo'llari va yo'laklari piyoda yurish va yugurish uchun ideal joylardir. Shuni hisobga olib yo'l landshaftlarida velosiped yo'llari yoki velosipedda sayr qilish uchun moslashtirilgan yo'llarni tashkil qilish lozim
2. Yo'l bo'yi landshaftlari ko'plab qush turlari uchun yashash joylarini ta'minlaydi va qushlarni kuzatish uchun ajoyib joylardir. Yo'l bo'ylaridagi daraxtlarda qushlar uchun inlar tashkil qilinsa maqsadga muvofiq.
3. Yo'l bo'yi landshaftlari sayohatchilarga yo'l bo'ylab manzaradan bahramand bo'lish va atrof-tabiiy-muhit bilan aloqa qilish imkonini beradi. Yo'l landshaftlarida o'tkaziladigan vaqt ruhiy tushkunlikni kamaytirishga va umumiy farovonlikni yaxshilashga yordam beradi. Yo'l bo'yi landshaftlarida odamlarning bir-biri bilan uchrashishi va muloqot qilishi uchun maxsus joylarni tashkil qilish lozim.

Yuqoridagi tavsiyalar inobatga olingan holda yo'l bo'yi landshaftlari tashkil qilinganda mazkur landshaftlar odamlarga tabiat bilan aloqa qilish, rekreatsion faoliyat bilan shug'ullanish va umumiy farovonlikni yaxshilash uchun qimmatli imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Nazarov I., Allayorov I., Toshev X., Mavlonov A. Madaniy landshaftlar yaratishning tamoyillari xususida To'plam, Tog' va tog'oldi hududlaridan foydalanishning geografik asoslari. Toshkent, 2002 y. (22-23 betlar)
2. Xin Gu, Tao Hong Landscape Design of Road Environment based on Computer Journal of Physics: Conference Series 1649 (2020) 012012 doi:10.1088/1742-6596/1/01/2012
3. Road Landscape Manual A Guide to the Planning, Design, Operation and Maintenance of Road Landscape Infrastructure 2nd Edition, June 2013
4. Roadside Design Guide 4th Edition 2011 American Association of State Highway and Transportation Officials 444 North Capitol Street, NW, Suite 249 Washington, DC 20001
5. <http://creativecommons.org/licenses/by/3.0/au/>
6. <https://www.irfnet.org>

EKOTURIZM ASOSIDA O'SIMLIKLAR DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH

Bazarova N., Mardonova N.

Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O'zbekiston

e-mail: nigorabazarova10@gmail.com., xaydarovanargiza32@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'simliklar dunyosini saqlab qolishda ekoturizmning tutgan o'rni haqida bayon qilingan. O'simliklar dunyosining tabiat va insoniyat hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qashqadaryo vohasida ekoturizmni rivojlantirish uchun katta tabiiy imkoniyatlar mavjudligi va uning istiqbollari shuningdek, Hisor qo'riqxonasiidagi mavjud ko'plab o'simliklar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: landshaft, qo'riqxona, ekoturizm, ekoturist, flora, tog', cho'l, voha.

ЗАЩИТА МИРА РАСТЕНИЙ НА ОСНОВЕ ЭКОТУРИЗМА

Bazarova N., Mardonova N

Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан

e-mail: nigorabazarova10@gmail.com, xaydarovanargiza32@gmail.com

	Omonov I.X.		
16.	Tillaxo'jayev S.S., To'xtaboyev K.A.	GIS texnologiyasi va zamonaviy tadqiqotlar	74
17.	Ibragimov U.N.	GAT dasturlari yordamida temir yo'llar davlat kadastri ma'umotlar bazasini yaratish	77
18.	Samankulov Sh.R.	Qurilish maydonida bino va inshootlarni o'rnini tanlashda relyef holatining ahamiyati	82
19.	Zuxurov Y.T., Aralov M.M.	GAT dasturlaridan foydalanib bino va inshootlar davlat kadastr ma'lumotlarini tuzish	86
20.	Xusanova M.I., Isakov M.K., Ro'ziqulov D.N., Omonov I.X.	Bino va inshootlar raqamli kadastr xarita va planlari uchun masshtab tanlashni asoslash	91
21.	Tovbayev G'.	Kartografik metodlar yordamida iqlim o'zgarishlarini tahlili	94
22.	Shukurov A.U., Abdulxamidov E.F.	GIS texnologiyasidan foydalangan holda o'quv jarayonining samaradorligini oshirish	97
23.	Тожиева С.А.	Формирование картографических умений Школьников 34-общеобразовательной школы тайлякского района самаркандской области применением гис-технологий.	102
24.	Qo'chqorova G.Sh. Safarova N.S.	Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda gis texnologiyalarining ahamiyati	106
25.	Khasanova M.U.	GIS-based analysing of acceptable areas for solar and wind energy sources in samarkand region, Uzbekistan.	109

V SHO'BA
TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK
MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.

1.	Вишневская М.П., Кайсарова К.С., Краснов П.А.	Развитие пешеходного туризма чувашши на примере «тропы памяти»	114
2.	Боймирсаяв К.М., Худойбердиева С.М.	Спорт туризмнинг жаҳон ва ўзбекистон миқёсидаги ривожланиш тарихи	120
3.	Usmanov M.R., Jumaboyev T.J., Normatov S.A., To'g'ilov H.S.	Janubi-g'arbiy O'zbekistonda qishloq turizmi va agroturizm muammolari	126
4.	Ибрагимов Э.Х., Гуфранов Д.Н.	Развитие различных отраслей туризма в период независимости республики таджикистан	133
5.	Mavlonov A.M.	Buxoro viloyatida agroturizm va etnoturizmning rivojlanishi	141
6.	To'rayev Q.T., Qurbonov Sh.B., Shonazarova V.D.	Ziyorat turizmining kichik hududlar iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati	143
7.	Halimova G.S., Qalandarova D.D.	Yo'l va yo'l bo'yi landshaftlarining turistik salohiyatini oshirish masalalari xususida (Buxoro viloyati misolida)	148
8.	Bazarova N.,	Ekoturizm asosida o'simliklar dunyosini muhofaza	152